

along the normal. Between them is placed the object under study, the plane of which is perpendicular to the normal.

**REFERENCES:**

1. Айзенберг Ю.Б., Рожкова Н.В. Энергосбережение в светотехнических установках. М., 1999.
2. Гуревич В.И. Применение энергосберегающих ламп: проблема не техническая, а экономическая. Издательство "Знак", 1999г, 264 с.

**GENDER TENGLIK TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY-  
IJTIMOIY MUNOSABATLAR DAGIO'RNI**

**Eshboev Elyorbek Shahrato'g'li**  
*Qoraqalpoq Davlat Universiteti Yuridika fakulteti 2-bosqichtalabasi*

**Annotatsiya:** Ushbumaqolada gender tenglik va ubilan bog'liq atamalartushunchasi, ularning kelibchiqishi, zamona viy dunyo da gender tenglik ningsiyosiy-ijtimoiy munosabatlardagi roling qanchalikahamiyatligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi idai ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik bilan bog'liq bo'lgan atamalar ning tushunchalar ike ngtahliqilingan.

**Kalit so'zlar:** gender, gender tenglik, siyosiy-ijtimoiy munosabatlar, teng huquqlilik, gender statistikasi, jins bo'yicha kamsitish, pozitiv diskriminatsiya, gibrid diskriminatsiya, gender byudjeti.

**TAYANCH SO'ZLAR VA IBORALAR:**

Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rta sidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lif hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat;

Gender statistikasi – davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan, alohida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarni va jamiyatdagi munosabatlarni yoritadigan qismi;

Gender-huquqiy ekspertiza – normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish;

Jins bo'yicha bevosita kamsitish – jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash, shu jumladan oilaviy holati, homiladorligi, oliaviy majburiyatları tufayli kamsitish, shuningdek, shahvoniy shilqimlik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq to'lash;

Jins bo'yicha bilvosita kamsitish – bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qo'yadigan vaziyatlarni, holatlarni yoki mezonzlarni yaratish, shu jumladan, gender tengsizlikni ommaviy axborot vositalari, ta'lif, madaniyat orqali targ'ib etish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar yoxud talablar belgilash.

Pozitiv diskriminatsiya – bu kam sonli bo'lgan guruh yoki qatlamga alohida imkoniyatlar va kvotalar berish.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi munosabati bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratlashtirish jarayonida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning barchasi inson qadri, uning huquq va erkinligi uchun hisoblanadi. Bu borada ayollarning huquqlarini himoya qilish va ta'minlash davlat siyosati darajasigacha ko'tarilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqimiz ma'naviyati, huquqiy madaniyatini oshirish jarayonida ayollar huquqiga doir qoidalarni ilmiy tahlil qilish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda. Respublikamiz qonunchiligidagi ham xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ularga imtiyozlar belgilash to'g'risida bir necha qonun, Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Bu hujjatlarda ayollarga mehnat, davlat va ijtimoiy qurilish sohasida, pensiya ta'minot, bolali ayollarga belgilanishi lozim bo'lgan boshqa imtiyozlar kafolatlangan. Bundan tashqari parlament tarkibida ayollarning tarkibiy soni aniq foizlarda belgilab qo'yildi. Bu hol jahon tajribasida ham kuzatiladi. Masalan, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya kabi Boltiq bo'yи davlatlari parlamentida ayollar soni umumiy deputatlarning 50 foizni tashkil qiladi.

Xususan, 2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" 1 qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning qonunchilik tizimida, jamiyat hayotining ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarida tub o'zgarish bo'la oldi. Ushbu qonunda uzoq davrlardan beri erkak va ayol o'rtaсидagi munosabatlarning bahsli munozaralariga chek qo'yish, tengsizlik va u bilan bog'liq bo'ladigan muammolarni hal etish asosiy vazifa etib belgilangan. Agar biz qonunning 1-moddasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligini biliшимiz mumkin.

Zamonaviy dunyoda yashar ekanmiz, ushbu davrda ayol va erkak huquqini bilmasligi ortidan huquq va imkoniyatlarining teng ta'minlanmasligida muammo kelib chiqishi, amrimahol. Jumladan, ushbu qonunning 6-moddasida davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi, shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar o'rtaсиda haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'rildi. Ya'ni, gender tenglik nafaqat ayol huquqlarining ta'minlanishini balki, ikki jins (erkak va ayol) vakillarining ham huquqlarining teng, og'ishmasdan ta'minlanishi kerakligini aytadi.

Asosiy qonunimizning 46-moddasida mustahkamlab qo'yilgan jinslaridan qat'iy nazar "xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi" davlatning ayollar huquqlarini tan olishi, ularga rioya etishi va ularni muhofaza qilish borasidagi konstitutsiyaviy majburiyati bilan chamcharchas bog'lanib ketadi. Umuman olganda, shu paytgacha qabul qilinayotgan qonunlar va bundan keyin qabul qilinadigan qonunlar zamirida faqat bir narsa yotadi, u

ham bo'lsa, inson qadri, uning huquqlari va erkinligi, uning (ikki vakil) o'rtasidagi tenglikning ta'minlanishidir.

Mamlakatimizda boshlangan yangi siyosat davrining oxirgi yillarida gender tenglikni ta'minlash borasida muhim qadam tashlanganligini qonunchilikimizda va davlatimizning samarali islohotlarida ko'rishimiz mumkin. Gender tenglikni ta'minlash strategiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi esa mamlakatda inson huquqlariga nisbatan hurmat bilan qarashni shakllantirish, O'zbekistonning xalqaro maydondag'i nufuzini yana-da yuksaltirish imkonini beradi.

Xususan, islohotlar samarası o'laroq, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilgan.

Komissiyaning asosiy vazifalari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, ushbu sohada qilingan ishlar bo'yicha har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash va bu borada xalqaro standartlarga rioya etish sohasida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirishdan iboratdir.

Qolaversa, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashlari tashkil etilgan. Har bir hududda "Ayollar tadbirkorligi markazlari" tashkil etilib, tegishli maqsadli jamg'armalar va tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilgan.

2021-yilda 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida Oliy Senatning qarorining tasdiqlanishi gender tenglik bilan bog'liq masalalarning hal bo'lismida turtki bo'la oladi. Mazkur qaror Gender tenglikni ta'minlash komissiyasining nizomiga ham o'xshaydi.

Bugungi yangilanayotgan jamiyatda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida o'zgarishlar, shuning bilan birga, yutuqlar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, siyosatda ayollarning faollashganining guvohimiz ya'ni davlat boshqaruvida, sudlov tizimida, ichki ishlar, milliy gvardiya bojxona tizimida xotin-qizlarning mehnat qilayotganligi ayni haqiqatdir. Zero, bu borada mazkur qonunning 4-bobi: "Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun treng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash" ga bag'ishlangan hamda 18-moddada saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash huquqi ya'ni, xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakilligi organlariga saylash va saylanishda teng huquqlarga egaligini qayd etish lozim. Siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy kengashlari